

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь

PERIFERIK NERV TIZIMI KASALLIKLARI VA ULARNING DAVO USLULLARI.

Radjabova Gulnora Islomovna.

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi bosh o'qituvchisi

Muxiddinov Xusniddin Muxiddinovich

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi bosh o'qituvchisi

Avlakulov Ulug'bek Maxmudovich

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi katta o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada “Periferik nerv tizimi kasalliklari”da ko'p tarqalgan. Zararlanish periferik asab tizimining hamma qisimlarida sodir bo'ladi; orqa miya nerv ildizlarining zararlanishi- *radikulit*, orqa miya orqa tugunlarining zararlanishi- *ganglionit*, nerv chigallarining zararlanishi-*pleksit*, bir necha periferik nervlarning zararlanishi-*polinevrit*, bitta periferik nervning zararlanishi- mononevrit yoki nevrit deb ataluvchi kasalliklar va ularning davolashda qo'llaniladigan davo muolajalari muhokama qilinadi. Periferik asab tizimi kasalliklari orasida nevritlar va radikulitlar juda ko'p uchraydi. Bularni keltirib chiqaradigan sabalari turli xil:

1. Yuqumli va boshqa kasalliklardan keyin (gripp, sil, difteriya, brutselyoz, revmatizm, diabet va boshqalar)

2. Toksik sabablar. Alkagol va boshqa turli xil zaharli kimyoviy moddalar

3. Turli xil jarohlardan, nerv tolalarining qisilishidan keyin ham paydo bo'ladigan kasalliklar ekanligi maqolada tahlil qilinadi. Shuningdek “Periferik nerv tizimi”kasalliklarini qanday klinik belgilari mavjud va aholi o'rtasida bu kabi kasalliklarni oldini olish va davo muolajarini olib borish mumkinligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Periferik nerv, radikulit, ganglionit,pleksit, polinevrit.

Kirish: Ushbu maqolada “Periferik nerv tizimi”kasalliklari yani nevritning asosiy belgilari: nerv yo'li bo'ylab og'riq paydo bo'lishi, asab tizimini harakatlantiruvchi va sezuvchi vazifalarining yo'qolishi - periferik nerv falaji boshlanib mushaklar atoniyasi va atrofiyasi paydo bo'lishi, arefleksiya, og'riq sezgisining pasayishi yoki yo'qolishi, terida trofik o'zgarishlar; terining yupqa tortib quruq bo'lib qolishi, sochlarning to'kilib ketishi, teri rangining o'zgarishi, tirnoqlarning mo'rt bo'lib qolish kabi klinik belgilari va usbu kasalliklar davo muolajalari haqida so'z yuritiladi

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь

Materiallar va usullar:

Tadqiqotlar metodikasi: Zamonaviy ilmiy maqolalar, kasallik holatlari va zamonaviy tadqiqot ishlari tahlil qilindi. Periferik nerv tizimi kasalliklari mavzusida gi so'ngi innovasion davo usullari haqidagi oxirgi yillarda chop etilgan ilmiy manbalar o'rganildi.

Nazariy asos:

Periferik nerv tizimi kasalliklarida qo'llanilayotgan zamonaviy davo muolaja usullari va periferik nerv tizimi kasalliklari yani nevit bilan kasallanishni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar muhokama qilindi. Asosiy e'tibor kasallikni oldini olish va davo muolajalarini o'z vaqtida samarali qo'llashga qaratildi.

Har bitta nerv ma'lum joyda yotadi va suyak hamda tog'ay oralig'idan o'tadi. Bu suyak va tog'aylarda o'zgarishlar bo'lib, ular o'sadi va periferik nervlarni bosib qisilishga olib keladi. Radikulitlarni keltirib chiqaradigan jarayonlar umurtqa pog'onasidagi birlamchi o'zgarishlardir. Bu o'zgarishlar umurtqa pog'onasida kuzatiladigan moddalar almashinuvining buzilishi natijasida kelib chiqadi. Osteoxondroz umurtqalar orasidagi tog'ay to'qimalarning o'zgarishi natijasida namoyon bo'ladi. *Spina bifida* –umurtqalar orasidagi oraliqning bitmay qolishi. Ko'p noto'g'ri, qaltis harakatlar vaqtida og'ir yuk ko'targanda umurtqalararo disk joyidan siljiydi. Natijada asab tolalarini qisib qo'yadi.

Amaliy tadqiqotlar: "Periferik nerv tizimi" kasalliklarida davo muolajalari usullari o'rganildi. Kasallik xavf omillarini aniqlash va davo samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy tibbiyot texnologiyalarning qo'llanilishi tahlil qilindi.

Natijalar: Klinik belgilari, diagnostikasi va davosi. Nevralgiyalarda asosan kuzatiladigan biror nerv yo'li bo'ylab og'riq paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Bel dumg'aza radikuliti. Bel dumg'aza radikuliti juda ko'p uchraydi, bunga bel dumg'aza sohasiga og'irikning ko'p tushishi sabab bo'ladi. Odamzot kechayu kunduz harakatda bo'ladi, o'tiradi, turadi, yuradi.

Klinik manzarasi. Bemorlar, odatda, qattiq bel og'rig'idan, oyoqlarda sonning old va orqa tomonidagi og'riqdan shikoyat qiladilar. Og'riq harakat qilganda, ish qilganda, yo'talganda, aksa urganda kuchayadi. Ko'pincha bemorlar oyoqlari sovuq qotishi uvishishidan shikoyat qiladilar.

Tirsak nervining nerviti. Bemor to'rtinchi va beshinchi barmoqlar sohasida uvishish va jimirlashishdan shikoyat qiladi. Tekshirganda bemor barmoqlarni buka olmaydi, qo'l barmoqlarini bir-biriga yaqinlashtira olamaydi. Gipotenor sohasida

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444


Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь

atrofiya, IV-V barmoqlarining ichki va tashqi qismida sezgi pasayadi. Bemorning qo'l panjasi "qush panjasi"ga o'xshab qoladi.

Bilak nervi nevriti. Odam qattiq uxlaganda, qo'lini boshi ostiga qo'yib yotganda yoki tana tagiga qolib ketishi natijasida, qattiq charchab uxlab qolgandan, spirtli ichimliklar ichgandan keyin paydo bo'ladi. Bu falajlikka "uyqudagi falajlik" deb ataladi.

Klinik manzarasi. Bemor qo'l panjasi osilib qolganligidan, uvishishidan, og'riqdan shikoyat qiladi. Tekshirilganda qo'l panjasi osilib qolgan, shu mushaklarda gipotoniya va atrofiya bo'ladi. Tirsakni yozuvchi reflekslar yo'qoladi.

Yuz nervining nevriti. Sabablari. Yuz nervining zararlanishi ko'pincha yuqumli kasalliklar natijasida, quloqning yiringli kasalliklaridan keyin, sovqotish, shamollash, bosh miya jarohatlari, yuz nervining qisib qolisji, harxil allergic holatlardan keyin paydo bo'ladi. **Klinik manzarasi.** Yuz nervining nevritida yuzning qaysi tomonidagi nerv zararlangan bo'lsa shu yuzning yarim tomonidagi mimik mushaklarning falajlanishi kuzatiladi. Bunda bemorning yuzi assimetrik bo'ladi. Masalan, o'ng tomondagi yuz nervining periferik nervi zararlansa, shu tomondagi yuz nervining periferik falaji sodir bo'ladi. Bunda tinch holatda kuzatganimizda o'ng tomonda yuz assimetriyasi, yani yuz bir xil emas, o'ng tomonda peshana ajinlari silliqlashgan, qosh biro z pastda, ko'z oralig'i kengaygan burun lab qatlami silliqlashgan va og'iz burchagi pastga tushgan boladi. Mimik sinovlarda bemor o'ng tomondagi qoshini ko'tara olmaydi, achchiqlana olmaydi, ko'zini yuma olmaydi, qovoqlari to'liq yumilmaydi (Bella) belgisi, tirjayganda burun-lab qatlami tashqariga ketmaydi, og'iz burchagi sog' tomonga tortib ketadi, unjini shishira olmaydi, hushtak chala olmaydi



Davosi. Yuz nervining nevriti kelib chiqish sabablariga qarab antibiotiklar, shishlarni kamaytirish uchun diakarb, laziks buyurilakdi. Mimik mushak belgilarining birinchi

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь

belgilari paydo bo'lishi bilan uqalash, paraffin, shifobaxsh badantarbiya mashqlari tavsiya etiladi. Asab o'tkazuvchanligini yaxshilash uchun prozerin, galantamin, oksazil, kalimin, dibazol 0,02 g dan kuniga 3 mahal, kasallik boshlanganidan bir hafta keyin beriladi. Agar yuz mushaklarida kontraktura boshlansa finlepsin yoki tegretol buyuriladi. Ichish uchun analgetiklar B guruh vitaminlar, ensa sohasidagi kaliy yodid bilan elektroforez, refleksoterapiya uqalash yaxshi natija beradi.

Munozara:

Zamonaviy davolash usullarining samaradorligi: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki "Periferik nerv tizimi" kasalliklarida o'z vaqtida ko'rsatilgan tibbiy yordam va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va zamonaviy davo usullarini qo'llash ko'plab asoratlarni oldini olishga imkon beradi. Xususan davo usullariga fizioterapevtik muolajalar va refleksoterapiya ham tavsiya etiladi.

Xulosa: "Periferik nerv tizimi" kasalliklariga sababchi bo'luvchi omillarni oldini olish va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini to'g'ri shakllantirish va bemorlarga o'z vaqtida to'g'ri tashxis qo'yish davo muolajalar kursini o' vaqtida o'tkazish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Shodmonov X.Q., Eshmuradova X.Sh., Tursunov O.T. "Asab va ruhiy kasalliklar". Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 2009 yil.
2. Po'latova Sh.A., Saidova X.X. "Kattalarda hamshiralik parvarishi" II qism, Toshkent "Cho'lpon" nashriyoti, 2014 yil.
3. Abdullaeva V.K., Sharipova F.K., Babaraximova S.B., Iskandarova J.M. Xususiy psixiatriya. O'quv qo'llanma. – Toshkent. Navro'z. 2015 y.
4. Xodjaeva N.I., Shoyusupova A.U. Psixiatriya: tibbiyot institutlari talabalari uchun. Darslik. – Toshkent. Mehridaryo. 2011 y.
5. Z.S. Yunusdjonova, S.A. Mirzayeva, E.I. Bositxonova Psixologik parvarish Toshkent 2014y
6. Umumiy va tibbiy psixologiya. Y. M. Fayziyev, E. h. Eshboyev. Toshkent 2009

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz;
2. www.lex.uz;
3. www.bilim.uz